



MAMLAKAT ISHSIZLIK DARAJASINI KAMAYTIRISHDA QURILISH TASHKIOTLARINING TUTGAN O'RNI

Alijonov Jamshid Alijon o'g'li

Renessans ta'lim universiteti

ORCID: 0009-0009-4651-2064

alijonovjamshid69@gmail.com

Annotatsiya. Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, mamlakatimizning turmush darajasini yanada yaxshilash, mamlakatimizda bugungi kunda izchil olib borilayotgan islohotlardandir. Ushbu maqolaning zamirida mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy etishi, mamlakatimizda qurilish sohasini rivojlantirish orqali ishsizlik darajasini kamaytirish, aholimizning turmush farovonligini yanada yaxshilash, yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini oshirish va iqtisodiy rivojlantirish yotadi.

Kalit so'zlar: ishsizlik darajasi, ishsizlikning tabiiy darajasi, qashshoqlik darajasi, bandlik, shaffof qurilish, renovatsiya, investitsiya, "shaharsozlik kodeksi", obod qishloq, arzon uy-joylar, obod mahalla, qurilish sohasining YaIM dagi ulushi, "Ye-ombor" platformasi.

РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СНИЖЕНИИ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ В СТРАНЕ

Алижанов Жамшид Алижанович

Образовательный университет Ренессанс

Аннотация. Дальнейшее развитие сферы жилищного строительства, совершенствование механизмов привлечения инвестиций, дальнейшее повышение уровня жизни в стране-одна из реформ, последовательно проводимых сегодня в нашей стране. В основе данной статьи лежит диверсификация экономики нашей страны, снижение уровня безработицы за счет развития строительной отрасли в нашей стране, дальнейшее улучшение благосостояния нашего населения, повышение уровня валового внутреннего продукта и экономическое развитие.

Ключевые слова: уровень безработицы, естественный уровень безработицы, уровень бедности, занятость, прозрачное строительство, реновация, инвестиции, "Градостроительный кодекс", процветающая деревня, доступное жилье, процветающая махалля, доля строительной отрасли в ВВП, платформа "е-склад".

THE ROLE OF CONSTRUCTION ORGANIZATIONS IN REDUCING THE UNEMPLOYMENT RATE OF THE COUNTRY

Alijonov Jamshid Alijon oqli
Renaissance University of Education

Abstract. Further development of the field of housing construction, improvement of mechanisms for attracting investments, further improvement of the standard of living of our country, is one of the reforms that are consistently carried out in our country today. At the heart of this article lies the expansion of the economy of our country, the reduction of the unemployment rate through the development of the construction sector in our country, the further improvement of the living well-being of our population, the increase of gross domestic product and economic development.

Keywords: unemployment rate, natural unemployment rate, poverty rate, employment, transparent construction, renovation, investment, "Urban Planning Code", prosperous village, affordable housing, prosperous neighborhood, share of the construction sector in GDP, "Ye-warehouse" platform.

Kirish.

Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining a'ng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Respublikamizda bugungi kunga kelib aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish dozarb masalalardan biridir. Tezkor rivojlanib, o'sib borayotgan iqtisodiyotda Ishsizlik darajasi mamlakat iqtisodiyotining qay darajada taraqqiy etganligining hamda iqtisodiyotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 27.01.2025-yidagi "PF-11" sonli farmoni "uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qabul qilindi.

Mamlakatimizda uy-joy qurilishi sohasini uy-joylarni loyihalashtirishdan tortib, foydalanishga topshirishgacha bo'lgan bosqichlarda kompleks tartibga solish, uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlash maqsadida ushbu farmon kuchga kiritildi. Eng avvalo biz ishsizlikning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri haqida ishsizlikning kelib chiqishi mamlakatdagi korxonalar, fermalar, tabdirkorlik obyektlari, mahalliy ishlab chiqarish va mamlakat hududlaridagi iqtisodiy imkoniyatga ega bo'lgan hududlarni kamayishi orqali vujudga keladi. Bunday jarayonlarni vujudga kelishi mamlakat yalpi ichki mahsulotning keskin kamayishi va qashshoqlik darajasining ortishiga olib keladi. Ishsizlik darajasi deganda ishsizlar sonining mehnatga layoqatli aholi tarkibidagi ko'rsatkichi tushuniladi. Respublikada ishsizlik darajasini bandlik xizmatlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar sonining mehnatga layoqatli aholi umumiy soniga nisbatan olib hisoblash mumkin. Ishsizlik darajasiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi: ish haqining pastligi, mehnat sharoitlari yaxshi emasligi, ish haqining vaqtida berilmasligi, ish joylarini qisqartirishlar va boshqalar. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lganligi uchun, har qaysi davlat uning har bir turi uchun alohida chora-tadbirlar ishlab chiqishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ushbu maqolada davlatning iqtisodiyoti hamda shu davrda mamlakatda mavjud bo'lgan ishsizlik darajasi o'rtasidagi munosabat, mamlakat bandlik ko'rsatkichi va ishsizlikning o'zaro bog'liqligi borasida tahlil ishlarini olib borgan olimlarning fikrlari keltirilgan.

Yale universiteti iqtisodchi olimi Ouken iqtisodiy o'sish hamda ishsizlik mo'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishni boshlagan, hamda Ouken qonuniga asos solgan. Ouken qonuni mamlakatdagi ishsizlik va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi statistik munosabatlarga alohida e'tibor qaratadi. (Zaxidov va boshq., 2019)

Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi. (Mankiw, 2018).

Agar ishsizlik tabiiy darajadan pastga tushsa, unda davlat tomonidan uni tartibga solish talab qilinmaydi. Davlat faqat majburiy ishsizlikni tartibga solishi, uning tabiiy shaklga o'tishini qidirishi kerak. (Maxmudov va boshq., 2022).

Mehnat bozori qanday kadrlar, mutaxassislar, kasblarga talab borligini, ulardan qandaylari ortiqchaligini ko'rsatadi. Bu ko'pgina mamlakatlar uchun dolzarb muammodir. (Abdurahmonov, 2019)

Ishsizlikning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lganligi uchun, har qaysi davlat uning har bir turi uchun alohida chora-tadbirlar ishlab chiqishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. (Maxmudov va Hakimov, 2019).

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi bilan uning tarkibida turli o'zgarishlar ro'y beradi. Yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga qo'llanishi natijasida ba'zi bir tarmoq va soha mahsulotlariga bo'lgan talab qisqarib, zamonaviy mahsulot turlariga talab o'sadi. Bu esa yalpi ishchi kuchi tarkibida ham ma'lum o'zgarishlarning ro'y berishini taqozo etadi. (Maxmudov va boshq., 2014)

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, ilmiy va umumiy tahlil, qiyoslash, o'zaro solishtirma tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Bozor iqtisodiyoti munosabatlari barqarorlashayotgan davrda ishsizlikning bo'lishi tabiiy holatdir. Chunki ishchi kuchiga bo'lgan talabning taklifiga mos kelishi oqilona bandlikni shakllantirib, jamiyat uchun tabiiy bo'lgan ishsizlik darajasini tarkib toptiradi. Ish bilan band bo'lmagan shaxslarni yangi kasblarga o'rgatish, malakasini oshirish, moddiy yordam berish va ish joylarini tavsiya etish mehnat birjasi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlarning eng muhimi hisoblanadi. Agar ishsizlik tabiiy darajadan pastga tushsa, unda davlat tomonidan uni tartibga solish talab qilinmaydi. Davlat faqat majburiy ishsizlikni tartibga solishi, uning tabiiy shaklga o'tishini qidirishi kerak. Bunday tartibga quyidagilar orqali erishiladi: mehnat birjalari ishini sozlash; mehnat bozori holatini kuzatish; ishchilarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish; ishsizlikdan sug'urta qilish tizimi; kichik korxonalarni imtiyozli soliqqa tortish; maqsadli va mintaqaviy ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish.

Barcha mavjud resurslardan to'liq foydalanish yoki ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmini iqtisodiyotning ishlab chiqarish potentsiali deb ataladi. Mamlakatning ishlab chiqarish potentsiali potentsial YaIM ko'rsatkichi bilan o'lchanadi. ILOSTAT ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2024-yilgi ishsizlik darajasi reytingida 187 davlat orasida 4,5 foiz ko'rsatkich bilan 113-o'rinni egalladi. MDH davlatlari orasida O'zbekiston Tojikiston (11,6 foiz), Ozarbayjon (5,6 foiz) va Qozog'istondan (4,8 foiz) keyin to'rtinchi o'rinni egalladi.

1-rasmdagi diagrammada mamlakatimizning 2018-2024-yillardagi ishsizlik darajasining o'zgarishi keltirilgan. So'nggi uch yilda mamlakatimizda ko'makka muhtoj 3 million aholining turmush sharoiti yaxshilanib, kambag'allik darajasini 17 foizdan 11 foizga tushirishga erishilgan. Kelgusi uch yilda kambag'allik darajasini 7 foizgacha pasaytirish maqsad qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 23 yanvar kuni ipoteka dasturi doirasida 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025 yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

O'tgan yili yurtimizda jami 40 million kvadrat metrdan ziyod bino-inshootlar qurilgan. Jumladan, 100 mingdan ziyod xonadonga ega 2 ming 44 ta ko'p qavatli uylar bunyod etilgan. Sohani rag'batlantirish uchun 2024 yilda 59 ming odamga 17 trillion so'm ipoteka krediti ajratilgan. Quruvchi va developerlarga aylanma mablag' uchun jami 3 trillion so'm berilgan.



1-rasm. Ishsizlik darajasining o'zgarishi

Manba: O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga asosan.

Umuman, 2030 yilgacha 100 ta "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishi rejalashtirilgan. Buning uchun yerlar kamida 70 ming odam yashaydigan tuman markazi yoki shahar hududiga 1-2 kilometr masofadagi joydan ajratiladi. Bu massivlarning har birida 100 ming kvadrat metrli 2 mingta xonadon quriladi.

Ishlarni sifatli tashkillashtirish uchun zamonaviy menejerlardan iborat "O'z uyim" kompaniyasi tuziladi. Ushbu kompaniya "Yangi O'zbekiston" massivlariga yer tanlash, loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishga mas'ul bo'ladi. Mutasaddilarga xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda, kelgusi besh yil uchun uy-joy siyosati strategiyasini ishlab chiqish topshirildi.

Qurilish sifati va nazorati masalalariga alohida to'xtalib o'tildi. Endi bu jarayonlar soddalashtirilishi qayd etildi. Jumladan, binokorlar "Shaffof qurilish" platformasi orqali tayyor loyihani idoralar bilan onlayn kelishadi. Inshootning loyihaga mosligini Qurilish sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tekshiradi va bitganidan keyin xulosa beradi. Zarur hollarda, boshqa sohadagi mutaxassislarni jalb qiladi. Qurilish davomida zilzilaga bardoshlilikni sinovdan o'tkazgan laboratoriyaning o'zi oxirida qo'shimcha haq olmay xulosa beradi. Binoni foydalanishga topshirishda hozirgi 7 ta idora o'rniga faqat 2 ta – Qurilish inspeksiyasi va yong'in xavfsizligining xulosasi yetarli bo'ladi.

Ma'lumki, yaqinda Toshkent shahrini Bosh rejasi tasdiqlandi. Endi arxitektura-rejalashtirish topshirig'i va qurilishga ruxsat berish jarayonini birlashtirib, bunga ketadigan vaqtni 2 karra qisqartirish zarurligi aytiladi. Bu tizim kelgusi yildan boshqa viloyatlarda ham yo'lga qo'yiladi. Yer olishdan boshlab, binoni foydalanishga topshirishgacha bo'lgan har bir bosqich ko'rinib turadigan raqamli tizim yaratiladi.

Joriy yilda mamlakatimizda 120 ming xonadonli ko'p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Yangi Toshkentda 15 ming xonadon barpo qilish ko'zda tutilgan. Bu uylarda "yashil" energiyadan foydalaniladi. Energiya barqarorligini ta'minlash uchun xususiy sheriklik asosida 100 megavatt soat sig'imli elektr saqlash quvvati o'rnatiladi.

Yangi Toshkentdagi uylarni isitish va sovutish markazlashgan "uch generatsiya" tizimi orqali bo'ladi. Buning hisobiga yoz mavsumida elektr sarfi 4 karra qisqaradi. Barcha bino-

inshootlarga yuqori energiya samaradorlik talablari joriy qilinadi. Transport, yoritish tizimlari va zaryadlash stansiyalari faqat “yashil” texnologiyalar asosida bo’ladi.

Eski uylarni renovatsiya asosida yangilash masalasiga ham e’tibor qaratildi.

Bunda yerdan foydalanish samaradorligi 4-5 karra oshadi, kommunikatsiya xarajati 2 karra kamayadi. Asosiysi, bu orqali shu hududdagi odamlarning dunyoqarashi o’zgaradi, turmush tarzi tubdan yaxshilanadi, ish o’rni ko’payib, iqtisodiyot rivojlanadi.

Jizzax, Marg’ilon, Qo’qon, Shahrisabz, Qarshi shaharlari, Do’stlik va poytaxt tumanlarida shunday ishlar boshlangan. Bu bosqichma-bosqich boshqa hududlarda ham amalga oshiriladi (Yig’ilish, 2025).

Demak, qurilish sohasini tubdan isloh etish va yanada soddalashtirish chora tadbirlari iqtisodiyotimizni yanada barqarorlashtirish aholi turmush tarzini yanada yaxshilashga qaratilgan. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, jamiyatning rivojlanishi aholi turmush tarzini yaxshilash uchun biz shunchaki iqtisodiy o’sish bilan cheklanmasdan, balki har bir sohani yanada rivojlantirishimiz zarur ekan. Muhtaram prezidentimiz tomonidan olib brilayotgan barcha islohotlar Respublikamizda istiqomat qilayotgan aholining turmush tarzini yaxshilash va ularni muqobil ish o’rinlari bilan ta’minlashga qaratilgan. Ishsizlik va u bilan bog’liq muammolar mehnat bozoridagi ijtimoiy- mehnat munosabatlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ishsizlik muammosini o’rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo’shimcha ishchi o’rinlarini yaratish, ularni ishga tushirish aholining tabiiy o’sishidan orqada qolmasligi kerak. Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik deganda — ishchi kuchining ish joyi bilan ta’minlanmaganligi va natijada, uning biron-bir qonuniy daromad manbaiga ega bo’lmasligining muayyan (aniq) holati tushuniladi. Demak, ishsizlikni kamaytirish kambag’allikni qisqartirish yo’llaridan biridir Albatta aholini. ish bilan ta’minlash, aholini turmush darajasini yaxshilash, mamlakatdagi ishsizlik darajasini kamaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Chunki ishchi kuchiga bo’lgan talabning taklifiga mos kelishi oqilona bandlikni shakllantirib, jamiyat uchun tabiiy bo’lgan ishsizlik darajasini tarkib toptiradi. Ish bilan band bo’lmagan shaxslarni yangi kasblarga o’rgatish, malakasini oshirish, moddiy yordam berish va ish joylarini tavsiya etish mehnat birjasi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlarning eng muhimi hisoblanadi. Ishsizlik va u bilan bog’liq muammolar mehnat bozoridagi ijtimoiy- mehnat munosabatlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ishsizlik muammosini o’rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo’shimcha ishchi o’rinlarini yaratish, ularni ishga tushirish aholining tabiiy o’sishidan orqada qolmasligi kerak. Markaziy bank ma’lumotlariga ko’ra, 2023-yilda mamlakatda ishsizlik darajasi 8,1 foizgacha pasaygan. 2023-yil boshiga kelib O’zbekistonda 15 millionga yaqin mehnatga layoqatli aholidan 13,7 million kishi ish bilan ta’minlangan. 2023 yilning birinchi yarmida ishsizlik darajasi 8,1 foizga kamaydi. 2024-yilda yangi ish o’rinlari tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish va yangi moliyaviy vositalarni joriy etish hisobiga bu ko’rsatkich 4,5 foizgacha qisqartirilishiga erishildi.

Bundan bir necha yil muqaddam mamlakatimizda odamlarni eng ko’p tashvishga solayotgan uy-joy masalasi bugun davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. O’tgan qisqa davrda “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan tamoyil asosida salmoqli ishlar bajarildi.

Qurilish sohasini isloh qilish borasida qator tadbirlar amalga oshirilib, sohada davlat boshqaruv tizimi tubdan takomillashtirildi. Natijada sohada shaffoflikni ta’minlash borasida raqamlashtirish tizimi joriy etildi. Loyiha va pudrat tashkilotlarining elektron reyting tizimi ishga tushirilib, davlat xaridlarini (tenderlarni) elektron shaklda onlayn rejimida amalga oshirish yo’lga qo’yildi.

Hayotga tadbiiq etilayotgan izchil islohotlar tufayli aholi punktlarini qurishga kompleks yondashuv, uy-joy, turli bino va inshootlar bilan birga ijtimoiy infratuzilma obyektlari, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, ta'lim, tibbiyot va madaniyat muassasalari, istirohat bog'lari va xiyobonlar, sport maskanlari bunyod etilmoqda.

Masalan, birgina 2022 yilgi Investitsiya dasturi bo'yicha 1 ming 868 ta ijtimoiy obyektga keng ko'lamlilik qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari olib borildi. Aholini arzon va sifatli turar-joy bilan ta'minlash dasturlari doirasida namunali ko'p qavatli uylar atrofida madaniyat va san'at markazlari, sport inshootlari va boshqa maskanlar barpo etilayotgani e'tiborga molik.

Shiddat bilan qad ko'tarayotgan ijtimoiy obyektlar, ko'p qavatli turar joylar va barcha turdagi bunyodkorlik ishlari, o'z navbatida, sifatli qurilish mahsulotlariga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida tizimli ishlar amalga oshirib kelinayotgani tufayli soha jiddiy o'zgarishlar ro'y berayotir.

Qurilish ishlar hajmining keyingi yillarda yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lishida va yakunda YAIM ko'rsatkichdagi ulushining oshib borishiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yirik loyihalar asosiy tayanch ustun bo'lyapti. Mamlakatimizning barcha hududlarida qurilayotgan ko'p qavatli uy-joylar esa bunga amaliy misolidir.


Ahamiyatlisi, bu ishlar shiddat bilan davom ettirilib, arzon uy-joylar va ko'p kvartirali uylar qurish ko'lamini kengaytirish, sohaga yangi arxitektura va texnik yechimlarni joriy etish orqali aholining uy-joy maishiy turmush sharoitlarini yaxshilashga katta e'tibor qaratilyapti.

Hududlarda ham qurilish ishlari ko'lami yil sayin ortib bormoqda. Masalan, respublika bo'yicha jami qurilish ishlari hajmi 2020 yilda 88 trln. so'mni, 2021 yilda 108 trln. so'mni va 2022 yilda 131 trln. so'mni tashkil etgan.

60-yillardagi AQSh prezidenti Kennedining maslahatchisi, iqtisodchi olim Artur Ouken (A. Okun) bir necha o'n yillik statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish hajmining ortda qolishi va davriy ishsizlik o'rtasidagi empirik bog'liqlikni o'rgandi va iqtisodiy adabiyotlarda «Ouken qonuni» deb nom olgan qonuniyatni yaratdi.
$$\frac{Y-Y^*}{Y^*} = -\beta(U - U^*)$$

Tenglamani chap qismida YaIMning uzilish formulasi yozilgan.

Tenglamani o'ng qismida: U - ishsizlikning haqiqiy darajasi; U^* - ishsizlikning tabiiy darajasi; $(U - U^*)$ - davriy ishsizlik darajasi; β - Ouken koeffitsienti ($\beta > 0$).



2-rasm. Qurilish sohasining YAIMdagi ulushi

Manba: O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga asosan.

O'tgan davrda qurilish sohasini isloh qilish bo'yicha 27 ta Prezident farmon va qarorlari, 24 ta Hukumat qarorlari qabul qilindi. Ayniqsa, yangi tahrirda qabul qilingan "Shaharsozlik kodeksi" ushbu sohada butunlay yangi davrni boshlab berdi. Kodeksga noyob va alohida muhim obyektlar, "reklama va axborot obyektlari", "turar joy obyektlari", "urbanizatsiya" va boshqa bir qator asosiy tushunchalar kiritildi.

Mazkur Kodeksda shaharsozlik faoliyatining asosiy prinsiplari aniq qilib belgilab berildi. Shaharsozlik faoliyati sohasidagi jamoatchilik nazorati va uning shakllari, subyektlari haqidagi normalar mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi tashkil etildi. Buni qurilishda shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish choralari bo'yicha islohotlar samarasi desak, aslo mubolag'a emas.

"O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni ham qurilish sohasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur Strategiyada 2025 yilga borib O'zbekistondagi shaharlarning barchasini va shahar posyolkalarining 25 foizini bosh rejalar bilan qamrab olish belgilandi. Bosh rejalarini tasdiqlashda jamoatchilik fikrining inobatga olinishi belgilab qo'yildi.

Ushbu hujjatlar doirasida qator chora-tadbirlar va islohotlar amalga oshirildi hamda bu borada muayyan natijalarga erishildi. Masalan, o'tgan 6 yil davomida shahar va qishloq aholi punktlari bo'yicha jami 1370 ta shaharsozlik hujjatlari, jumladan 202 ta shahar va shaharchalarning bosh rejasi va 1168 ta qishloq mahalla fuqarolar yig'inlarining bosh rejasi bilan birgalikda batafsil rejalashtirish loyihalari ishlab chiqildi.

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturi doirasida jami 1944 ta ahvoli og'ir mahallalarning bosh reja smexmalari ishlab chiqildi. Joriy yilda yana 225 ta shaharsozlik hujjatlari, jumladan 11 ta shahar va 50 ta shaharchalar bosh rejalarini, 42 ta hududlarning master rejalarini hamda 122 ta qishloqlarning bosh rejalarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Bu yil 170 ta, kelasi yili kamida 300 ta shahar va shaharchaning bosh rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bunda "Mening hududim" platformasi ishga tushirilib, har bir reja aholi bilan muhokama qilinadi va ijrosi bo'yicha jamoatchilik nazorati o'rnatiladi.

Davlatimiz rahbari yangi uy-joylar tannarxi masalasiga alohida to'xtaldi. Quruvchi kompaniyalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash maqsadida Ipotekani qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil qilinishi belgilandi.

Bu yil 80 ming xonadonli 1 ming 800 ta uy-joy va 45 ta "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etilishi aytili.

O'tgan 6 yilda qurilish sohasiga oid 537 ta texnik normativ hujjatlar ishlab chiqildi va eskilari yangilandi. Bundan tashqari, binolarning energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga oid 10 ta normativ hujjatlar yevropa standartlari asosida takomillashtirildi.


Loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish jarayonlari shaffof elektron tizimga o'tkazildi. Mazkur ishlar vazirlik huzuridagi "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" markazi tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

Ekspertiza organlariga qog'oz hujjatlar to'plamini taqdim etish amaliyotidan to'liq voz kechildi. Ekspertizaga loyiha-smeta hujjatlari onlayn topshirilmoqda. Bugunga qadar jami 30 mingga yaqin obyekt loyihasi ushbu tizim orqali ekspertizadan o'tkazildi. Natijada, mazkur obyektlar bo'yicha 7 trln. so'mga yaqin mablag' tejab qolindi.

So'nggi olti yilda aholiga munosib turmush sharoitlari yaratish maqsadida 360 mingga yaqin yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joylar qurildi. Xususan, 2017 yildan boshlab, 326 mingta yangi uylar foydalanishga topshirilgan. Bu davrda uy-joy bilan ta'minlash aholi jon boshiga 18 foizga oshgan. Buning uchun so'nggi uch yilda banklar 210 ming oilaga 33 trillion so'mlik ipoteka kreditlari ajratgan. Ehtiyojmand 73 ming oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovlari uchun 1,3 trillion so'm

Sohaga bozor tamoyillari joriy qiliab xususiy buyurtmachi kompaniyalar shakllandi. Yig'ma temir-betonli ko'p qavatli uylar quruvchi 11 ta yirik klaster paydo bo'ldi. Tadbirkorlarga

sharoit yaratilgani tufayli sement, gazoblok, kafel, keramogranit ishlab chiqarish ko'payib, ularning narxi ancha arzonlashdi. Bu ishlar izchil davom ettirilib, o'tgan yili 60 ming xonadonli ko'p qavatli uylar barpo etildi. 31 ta hududda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish dasturi boshlandi. Bu esa yillar davomida ijarama-ijara, sarson-sargardon yurgan ming-minglab insonlar qalbiga ishonch tuyg'usini olib kirdi.



3-rasm. Qurilish sohasidagi aholining bandlik ko'rsatkichi

Manba: O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga asosan.

Qurilish sohasining aholi bandligidagi ulushi 3-diagrammaga 2015 – yildan 2023-yilgacha 1 million 222 ming kishidan 1 502 min kishiga oshganligi ko'rsatilgan.

O'tgan yilda investitsiya dasturi doirasida 1 ming 637 ta infratuzilma inshooti qurilishi rejalashtirilgan edi. Davlatimiz rahbari bunda budget mablag'larini samarali ishlatish, qurilishlar sifatini ta'minlash zarurligiga e'tibor qaratgan edilar.

Joriy yilda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 2,5 milliard dollarlik yangi loyihalar boshlanadi. Qayd etilganidek, endi bunday loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari ham majburiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, oxirgi olti yilda mamlakatimiz ulkan qurilish maydoniga aylandi. Nafaqat poytaxtimiz balki respublikamizning barcha go'shalarida qurilish ishlari amalga oshirildi, zamonaviy inshootlar qad rostladi. Natijada ko'p yillar o'z uyi bo'lishini orzu qilib yurgan qanchadan-qancha oilalar uy-joyli bo'ldi.

Mutasaddilarga qurilish me'yorlarini xorijiy tajriba asosida yangilash, qurilish materiallari sohasida "yashirin iqtisodiyot"ga chek qo'yish, bu borada elektron klassifikatorni ishga tushirish bo'yicha topshiriqlar berildi. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan budget hisobidan qilinadigan barcha xaridlar Soliq qo'mitasining "Ye-ombor" platformasi orqali amalga oshirilishi belgilandi. Bu esa ma'lumotlar ochiqligini vujudga keltirish bilan birga, sohadagi o'sishni yanada jadallashtiradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yurtimizda yashayotgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan. Qurilish sohasining rivojlanishi aholimiz yashash sharoitlarini o'zgartirib, aholi turmush tarzini yaxshilaydi. Shu bilan birga iqtisodiy faol aholimizni ish bilan ta'minlashda bu sohani ulushi kata hisoblanadi. Kelajakda osmono'par binolar qad ko'tarishi yurtimiz chiroyiga chiroy qo'shibgina qolmay aholimizning iqtisodiy holatini ham yaxshilashga imkon beradi. Demak, qurilish sohasining rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish quruvchilar huquqlarini himoya qilish va ularga qulay imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/References:

Abdurahmonov K. (2019). *Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qaytaishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, T.: 544 b.*

Farmon (2025) *O'zbekiston Respublikasi prezidentining 27.01.2025-yidagi "PF-11" sonli "uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.*

Lex.uz (n.d.) - *O'zbekiston qonunchiligi. [online] Available at: <https://lex.uz/>.*

Mankiw N. G. (2018) *Principles of economics eighth edition Copyright 2018 Cengage Learning. All Rights Reserved. May not be copied, scanned, or duplicated, in whole or in part. Wcn 02-200-203 Principles Of Economics Eighth Edition Harvard University.*

Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov I.Yu., (2014) *Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. –Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 249 b.*

Maxmudov N.M., Hakimov H.A. (2019) *Makroiqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2–146 bet.*

Maxmudov N.M., va boshqalar (2022) *Makroiqtisodiyot. (Darslik) T. « Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 454 bet.*

Stat.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi statistika qumitasi axborot markazi sayti.*

Yig'ilish (2025) *Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025 yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi.*

Zaxidov G'.E. va boshqalar (2019). *Makroiqtisodiyot. Dasrlik. - 290 bet.*